



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Kenjabayeva Barchinoy Narbay qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti
barcinajkenzabaeva@gmail.com
+998913077071

O'ZBEK VA TURK ERTAKLARIDA PARI OBRAZI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va turk xalq og'zaki ijodi hamda adabiyotlaridagi ertak janrida uchrovchi pari obrazlarining qo'llanilish darajasi va ilmiy tahlili yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek, har ikkala xalq adabiyotining umumiy va ustuvor jihatlarining ifodalanishida pari obrazlarining simvolistik va umumiy ma'nolari tahlili o'z ifodasini topgan. Mazkur mavzuga doir xalqaro va milliy ko'lamdagi ilmiy ishlarning nazariy tahlili ham amalga oshirilib, pari obrazlarining bir necha ko'rinishlari yuzasidan namunalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Potagonist, plot, fabula, dualizm, novellatik ertaklar, turk adabiyoti psixologiyasi, zoomorf, timsoliy qiyofa.

THE IMAGE OF THE FAIRY IN UZBEK AND TURKISH FAIRY TALES

Kenjabayeva Barchinoy

master's student majoring in Uzbek language and literature,

Nukus State Pedagogical Institute.

barcinajkenzabaeva@gmail.com

+998913077071

Annotation: This article discusses the usage and scientific analysis of the fairy character commonly found in the fairy tale genre, which is widespread in Uzbek and Turkish folk oral literature. It also explores the symbolic and general meanings of fairy images in representing the common and distinctive features of both nations' literatures. Furthermore, a theoretical analysis of international and national scholarly works related

to this topic has been conducted, and examples of various representations of the fairy character have been provided.

Keywords: Protagonist, plot, fabula, dualism, novelistic tales, psychology of Turkish literature, zoomorph, symbolic image.

ОБРАЗ ПЕРИ В УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ СКАЗКАХ

Барчиной Кенжабаева

Магистрант по специальности Узбекский язык и литература, Нукусского государственного педагогического института.

barcinajkenzabaeva@gmail.com

+998913077071

Аннотация: В данной статье рассматривается степень использования и научный анализ образа пери, часто встречающегося в жанре сказок, широко распространённого в узбекском и турецком народном устном творчестве и литературе. Также проанализированы символическое и общее значение образов пери в выражении общих и приоритетных черт литературы обоих народов. Кроме того, проведён теоретический анализ научных работ на международном и национальном уровнях по данной теме, приведены примеры различных форм образа пери.

Ключевые слова: Главный герой, сюжет, фабула, дуализм, новеллистические рассказы, психология турецкой литературы, зооморф, символический образ.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodining umumlashma shaklida jamoatchilikka taqdim etilishi kitobxonlikning rivojlantirilishiga asos sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayon, ayniqsa, o‘zbek va turk adabiyotning ertak janrida uchrovchi badiiy tasvirlar, obrazlar va suv parilari bilan bog‘liqdir. “Obraz” tushunchasi voqealar rivoji bilan umumiy aloqadorlik asosida yuzaga keladi, suv parilarining esa mifologik fantastik va ramziy ma’nolarda ertaklarda qo‘llanilishi asarning estetik zavqini oshirishga xizmat qiladi. Qardosh xalqlarning kichik janrlaridan biri sifatida qaraluvchi suv parisi obrazi ramziy-mifologik ma’noda hayot qo‘riqchilari sifatida qaralgan. Suv hayot ramzi bo‘lib, suv parisi esa hayot-u muhabbat ramzi sanaladi. Turk xalq og‘zaki ijodida “su perisi”, rus adabiyotida “rusalka”, G‘arb folklorida esa “mermaid” deb nomlanib, ramziy ma’nolarni bildiradi. Shuningdek, ertaklarning voqealar rivojida nafsiy qaramlik, muhabbat va fidoyilik, orzular va qo‘rquvlar kabi tushunchalar suv parilari bilan bevosita namoyon bo‘ladi. Bu esa suv parilarining potagonist sifatida bosh motivlik vazifasini ta’minlab berishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mazkur mavzu yuzasidan folklorshunos olim Qayumov Olim Sadriddinovich o'zining "O'zbek folklorida pari obrazi" (genezisi va poetikasi) mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi mavjud bo'lib, mavzu bilan mutanosiblikni tashkil etadi. Jumanov Elbekning 2022-yil "Jahon adabiyoti jurnali" 1-sonida chop etilgan maqolasida A.Mo'minov, A.Y.Bertelsning "suv" va "pari" so'zlarining ilmiy va nazariy izohi berib o'tilgan. Turk adabiyotida ushbu mavzu yuzasidan Gaziantep University Jurnal of Social Sciences tomonidan Selami Fedakarning "Özbekistan'daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi" nomli maqolasi 2014-yil iyun oyida chop etilgan bo'lib, O'zbekiston va Turkiyadagi ertak janrlari haqida mulohazalar yuritilgan. Turk adabiyotida uchraydigan "Gülperi", "Gülcemal peri" kabilarning simvolistik va reallik bo'yog'iga ko'ra ifodalanishi kuzatiladi. Turk yozuvchisi Ibrahim Şaşmaning "Peri masalı Yarışması"da yer olan "Uzun oğlan ve su perisi" ertagi va O'zbek xalq ijodi yuzasidan ilmiy tahlillar amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ertaklarda parilarning turli qiyofalarda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shunga ko'ra parilarning inson, hayvon, yarim baliq yarim inson va afsonaviy ko'rinishlarda ifodalanish xususiyatlari mavjud. O'zbek adabiyotida parilarning turli xil ko'rinishlari va ifodalanish shakllari uchraydi. Tarixiy va afsonaviy mifologiyaga oid bo'lgan parilar sifatida Sulaymon pari, Luqmon parilar mavjud bo'lsa, samoviy jismlarga oid nomlar bilan atalish yuzasidan samo pari, oy pari, kun pari kabilar mavjud. Turk xalq og'zaki ijodida tabiat va o'simliklarga oid nomlar ostidagi "Gul peri", "Gulcemal peri" kabi parilar obrazlari mavjud. Daryo, dengiz, kunlar nomi bilan bog'liq parilar har ikki xalq ijodiyotida uchrab turadi. Namuna sifatida umumiy nom ostida "suv parisi", "su perisi" kabilar yuksak ahamiyat kasb etadi. "O'zbeklar orasida keng tarqalgan mifologik qarashlarga ko'ra parilar to'rt xil qiyofada tasavvur etilar ekan:

- 1) *Antropomorf, ya'ni insoniy qiyofada tasavvur qilingan parilar;*
- 2) *Zoomorf, ya'ni jonivor ko'rinishida tasavvur qilingan parilar;*
- 3) *Qurama, ya'ni yarmi inson, yarmi jonivor ko'rinishida tasavvur qilinadigan parilar;*
- 4) *Timsoliy qiyofa, ya'ni narsa-hodisalar tarzida tasavvur qilingan parilar.*

Insoniy qiyofa – parilarning asosiy shamoyili. Bu ko'rinishdagi pari obrazining yetakchi belgisi go'zallikdir. Odatda, bunday parilar nihoyatda suluv, oyday go'zal qizlar yoki barkamol yigitlar qiyofasida tasavvur qilinadi".[1:18] Har ikkala xalq adabiyotida ham inson qiyofasidagi parilar bilan bog'liq ertaklar, afsonalar ko'proq uchraydi. Turkiyada parilar bilan bog'liq ertaklar musobaqasining ishtirokchisi Ibrahim Şaşma qalamiga mansub "Uzun oğlan ve su perisi" ("Uzun bo'yli o'g'lon va

suv parisi”) ertagi va o‘zbek xalq og‘zaki ijodida uchrovchi “Ilon pari” ertaklarining yaratilish usuli va unda o‘rin olgan pari obrazlarining tahliliga yuzlanamiz. Adabiyot dunyosida ertaklar sehrli sonlar – 3, 7, 9, 40 kabilar hamda dev, yalmog‘iz, parilar, sehrgarlar, maxluqlar bilan aloqador tarzda shakllanadi.

“Uzun o‘g‘lan ve su perisi” ertagi tasviriy ifodalar bilan boshlanadi. Unda qishloq hayotining chizgilari, turk xalq madaniyatining yorqin namunasi hisoblangan olijanoblik, mehnatsevarlik qalamga olinadi. Adabiy mutanosiblikning akslantirilishi natijasida yolg‘iz, qari onaning dangasa va tanbal farzandi personaj darajasidan boshqa qahramon darajasi ko‘tarila boshlaydi. Adabiyot qonun-qoidalaridan biri shuki, parilar bilan bog‘liq voqea-hodisalar, asosan, qahramon botirlar, shahzodalar bilan aloqador tarzda yuzaga keladi. Ushbu ertakda esa onasining keksa bo‘lishiga qaramasdan, unga yordam bermaydigan, tanballik bilan umr o‘tayotgan yoshi ulg‘aygan, bo‘ylari uzun, kuchga to‘la yigitining hamisha uyida yotishi haqida so‘z boradi. “Akşama kadar evin içinde ya da bahçedeki ağacın gölgesinde miskin miskin yatarmış. Annesinin bu yaşta çalışmasına hiç aldırmazmış. Keyfine çok düşkün olan uzun oğlan sabah saatlerinde annesi işe gitse de yerinden kalkmaz, öğlene kadar yatarmış. Kalktıktan sonra da akşama kadar sinek avlar, fare kovalar, daha güneş batır batmaz, bir kedi gibi ocak başında kıvrılıp yatarmış. Uzun oğlanın annesi bu durumdan çok şikâyetçi imiş ama evladı olduğu için de bir şey yapamıyor, evladına kızamıyor, elinden bir şey gelmiyormuş”.[2:13] Bu esa Uzun o‘g‘lonning onasi xasta bo‘lib yotib qolishi va majburlikdan uy ishlarini qilish rejasida suv uyida parini uchratishi bilan bog‘liq vaziyatni yuzaga keltiradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblanadigan “ilon pari” ertagida esa o‘tgan zamonlarda hukmronlik qilgan yolg‘iz podshohning ov jarayonida chiroyli qizni ko‘rishi bilan hushidan ketgan podshoh va ilonlar parisi haqida so‘z boradi. So‘rab-surishtirmasdan sevgisi tufayli ilonlar malikasiga uylangan podshoh o‘zbek xalq ijodiyotida jo‘mardlik va sevgisiga sodiqlik ramzi ma’nosida ifodalanadi. Ramziy ma’noda ham suvning hayot ramzi ekanligini inobatga olsak, suv parilari ham hayot ramzi, muhabbat ramzi ekanligini tushunish mumkin. Ushbu ertakda afsonaviy vodiya yashovchi ilonlarning insonlar bilan yuzlashmasligini natijasida inson qiyofasiga kira olish qobiliyati shakllangan ekanligi ularning o‘ziga xosligi bo‘lib, kunduz pari, kechki payt esa ilonga aylanishardi. Aynan ushbu holat adabiy jamoatchilik tomonidan “Zoomorf” deb nomlanib, parilarning jonivorlar ko‘rinishida tasavvur qilinganligini va adabiy asarlarda uchrashini isbotlaydi. “O‘tgan zamonda bir podshoh yakka o‘zi ovga chiqib, ov qilib yurib, uzoqda bir narsa ko‘ribdi. Podshoh sekin borib qarasa, daraxt tagida bir pari qiz dam olib o‘tirgan emish. U qizni ko‘rgan zamon hushidan ketibdi. Birozdan so‘ng o‘ziga kelib qarasa, pari suv keltirib

podshohning yuziga sepib turgan emish. Podshoh uning qo‘lidan suvni ichib, o‘zi bilan birga saroyga olib kelibdi.

Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha bilan pari qizga uylanibdi. Oradan bir necha vaqt o‘tgach podshohning darmoni qurib, rangi sarg‘ayib, tusi o‘zgara boshlabdi. Nihoyat podshoh vaziriga aytibdi:

– Ey vaziri a‘zam, men uylanganimdan buyon darmonim qurib, kuchim borgan sari kamayib, holsizlana boshladim. Nima qilmoq kerak? – debdi. Vazir:

– To‘g‘ri aytasiz, taqsir, rangingiz ham sarg‘ayib, tusingiz o‘zgarib, oriqlab bormoqdasiz. Bu holni bir sinchiklab tekshirishga to‘g‘ri keladi. Taqsir, xafa bo‘lmasangiz, men sizga bir sir aytaman, maylimi? – debdi. Podshoh:

– Mayli, ayt, – debdi. Vazir:

– Taqsir, tag‘in bu dashtdan olib kelgan qizingiz Ilon pari bo‘lmasin. O‘tmishda qarilar:

– Dashtda ko‘rma, ilon bo‘ladi. Qirq yil odam ko‘rmasa, u pariga aylanadi-da, odamga kunduzi pari bo‘lib, kechasi ilon bo‘lib ko‘rinadi, – der edilar. Xotiningiz tag‘in ilon bo‘lmasin, deb gumon qilaman, debdi. Podshoh:

– Unday bo‘lsa, nima qilaman? – deb so‘rabdi.

– Agarda xo‘p desangiz, avval uni aniq bilish kerak, keyin uning chorasini ko‘ramiz, – debdi vazir”. [3:3]

“Uzun o‘g‘lan ve su perisi” ertagida esa uzun bo‘yli o‘g‘lonning suv tashish jarayonida qanotli ariga duch kelishi, o‘g‘lonning yordamida suvdan qutulgan arining qiz qiyofasidagi pariga aylanishi ham ertaklarda parilar bilan bog‘liq haqiqat va afsonalarining zoomorf shaklini bevosita yuzaga keltiradi. Shunga ko‘ra, turk adabiyoti mutaxassislarining fikricha, insoniy qiyofa pari bo‘lgan yoki parilik darajasida bo‘lgan har qanday hayvonlarning yetakchi obrazi sifatida chiroy va go‘zallik ramzi sifatida ertaklarda namoyon bo‘ladi.

Turk adabiyotining o‘ziga xosligi shuni iboratki, go‘zal qiz va malikalarning hamisha yordamga muhtoj bo‘lishi botirlar qahramonlar tomonidan ularning qutqarilishi, yordam berilishiga tashakkur sifatida parilar tomonidan tilaklarining amalga oshirilishi yoki turmush qurish taklifiga rozi bo‘lish holatlari kuzatiladi. “Arı, suyun kenarında bir süre beklemiş ve kanatlarını kurutmuş. Bu süre içerisinde uzun oğlan da kovaya suyu doldurmuş ve ırmağın başından ayrılmak için ilk adımını atmış. Uzun oğlanın az evvel suyun içerisinde çıkardığı arı kanatlarını güçlü bir şekilde çırpmaya başlamış. Arı kanatlarını çırpıkça her yer parıldamaya ve rengârenk olmaya başlamış. Etrafında bir ışık demeti oluşturan arı birkaç saniye sonra bir peri kızına dönüşmüş. Uzun oğlan ilk önce umursamamış, gördüğü güzel rüyanın etkisinden kurtulamadığını düşünmüş. Hatta hala uykuda olduğunu bile sanmış. Altın sarısı saçları beline uzanan, ay yüzlü bir güzelin yosun yeşili gözlerle kendine baktığını

görünce ne yapacağını şaşırılmış bir anda. Eli ayağına dolaşmış, dili damağına yapışmış, rüyada olduğunu düşünmüş yeniden. Şimdiye kadar gördüğü rüyaların en güzelini görmekte olduğunu, karşısında ki bu güzelin de rüyasını süsleyen peri kızı olduğunu düşünmüş. Bu peri kızı o kadar güzel, o kadar güzelmiş ki, yüzü aydan daha aydınlık, güneşten daha parlakmış. Bu güzel yüzü ile peri kızı uzun oğlanın adeta yüreğini yakıp kavurmuş bir anda. Uzun oğlan bir süre bu şaşkınlıktan kurtulamamış ve yaşadığı bu anın rüya olduğunu düşünmüş”. [3:5] O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub “Ilon pari” ertagida zoomorf hodisasining ilon bilan, “Uzun oğlan va su perisi” ertagida esa ushbu jarayonning ari bilan aloqador tarzda yuzaga kelishi har ikkala xalqning adabiy ko‘zqarashlaridan kelib chiqib ifodalaniladi.

Aynan ushbu holat ham adabiy asarlarning shakllanish jarayonida qoliplashgan vaziyat bo‘lib, o‘g‘lonning parini qidirib ketishi natijasida sarguzashtlar yuzaga keladi. Ushbu holat esa turk adabiyotida fabulaning plot bilan o‘zaro mutanosiblik asosida yuzaga kelishini ta‘minlab beradi. Bu esa voqealar rivojining sujet bilan uzviy tarzda ketma-ket tarzda amalga oshirishni yuzaga keltiradi. Yangi o‘g‘lonning tamballikdagi hayoti, tamballikdan chiqish jarayoni va mehnatga qaytish, mehnat jarayonida tasodifiy uchrashuv va ushbu uchrashuvda oshiq bo‘lishi natijasida o‘z baxtiga erishish uchun harakatlar chizig‘i paydo bo‘ladi. “A.Y.Bertelsning fikricha, “pari” so‘zining o‘zagi hind-yevropa bobo tilidagi “pery” leksemasi bo‘lib, bu so‘z zardushtiylikdan burungi mifologiyada go‘zallik va muhabbat ilohasining atoqli oti hisoblangan.

O‘zbek olimasi A.Mo‘minovanning yozishicha, qadimgi mifologiyada parilar odamlarni yovuz kuchlar asoratidan qutqaruvchi afsonaviy xaloskor sifatida tasvirlangan. Davrlar o‘tishi bilan pari obrazi hayotiylik kasb eta boshlagan; ular oddiy odamlarga xos belgi va xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan go‘zallik timsoliga aylangan”. [4:19] O‘zbek xalqi ertaklarida pari obrazi uchuvchi “Qorasoch pari”, “Pari qizning ko‘ylagi”, “Ilon pari” kabi ertaklarda voqealar rivojida keskinlikni talab qiladi. Milliy qadriyatlar va jo‘mardlik ufurib turgan “Qorasoch pari” ertagi o‘zbek adabiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandsizlikda qiynalayotgan podshohning tasodifan qonli jarohatlari bor bo‘lgan on va uning kichik farzandini o‘z qaramog‘iga olishi, Qorasochni o‘z qizidek qilib tarbiyalar, 13 yoshiga qadar unga mamlakatdagi eng yaxshi muallimlardan yollab, bilim berishda homiylik qiladi. Qorasoch parining 15 yoshda husnda barkamol, tengsiz bo‘lib yetishgani haqida dunyoga xabarlar tarqala boshlaydi. O‘zbek ertaklarida afsonaviy deb hisoblaniladigan Kashmir, Shom, Ajam kabi shaharlar ham tilga olinadi. Shuningdek, ertaklarda pari obrazini shakllantirilishida vosita sifatida uzuklarning qo‘llanilishi ham mazkur ertakning o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi.

Tahlil va natijalar(Analysis and results)

Parilar obraz sifatida ertakning asosiy g‘oyasi, ertakning tarbiyaviy ma’naviy ahamiyatini ochib berishiga quyidagi ertak turlaridan biriga aloqadorlikni yuzaga keltiradi.

1. Sehrli ertaklar;
2. Maishiy ertaklar;
3. Hayvonlar haqidagi ertaklar;
4. Novellatik ertaklar.

Olim Ibrohim Haqqulovning fikrlariga ko‘ra, jonivorlar yoki inson qiyofasidagi ko‘rinishi badiiy ertaklarda, xalq og‘zaki ijodida ko‘proq uchraydigan bo‘lsa, diniy mavzudagi ertaklar, rivoyatlarda timsoliy qiyofa narsa-hodisalar tarzida tasavvur qilinadigan parilar mavjud.

Diniy ertaklarda farishtalar yoki parilar ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ertakdan boshqa janrlarda qissa (“Qissasi Rabg‘uziy”), dostonlar (“Ravshan”), afsonalar (“Bilgis efseneleri”) va boshqalarda ham uchraydi. “I.Haqqulovning “Zanjirband she’r qoshida” kitobida parilar Ko‘hi Qof yoki Bog‘i Eramda maskan tutib, insonga va inson unga oshiq bo‘lishi tabiiy hol sanaladi”. [5:15] Shunga ko‘ra, turk adabiyotida uchuvchi pari obrazlarining yovuzlik simvoli sifatida ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa mavzu jihatidan o‘zbek xalq ertaklariga uyg‘un bo‘lib, dualizm hodisasi, ya’ni badiiy asarlar, ertaklarda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat haqidagi qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishda asos vazifasini bajaradi. “O‘zbek Halk İcadı” serisinde yayımlanan masal metnlerinin ve söz konusu enstitüde görev yapan bilim adamlarının farklı tarihlerde yayımladığı masal metnlerini bilimsel yayınlar olarak değerlendirmek gerekir. Çünkü bu kitaplar, tamamen daha önce yayımlanan masal metnlerinin bir araya getirilmesiyle hazırlanmış çalışmalar değil, derlenen masalların pek çoğunun ilk defa yayımlandığı ve masal metnlerinin derleme bilgilerine kitabın sonunda yer verildiği çalışmalardır. Popüler nitelikte kabul ettiğimiz yayınlar ise, daha önce farklı kaynaklarda yayımlanan masal metnlerinin bir araya getirilerek yeniden yayımlanmasıyla oluşturulmuş kitaplardır. Bu kitaplarda yayımlanan masal metnlerinin derleme bilgilerine yer verilmemiş, daha da önemlisi bu kitaplarda yer alan masal metnlerinin yeniden düzenlenerek çocuklara yönelik hale getirilmesi söz konusu olmuştur. Bu nedenle, makalemizde Özbek masallarının metin yayınları değerlendirilirken sadece akademik metin yayınları tanıtılmış, popüler yayınlar üzerinde durulamıştır”. [6:28] O‘zbek xalq ijodi, shu bilan birga, adabiy janrlardan biri bo‘lgan ertak turlarini o‘rgangan turkiyalik olim Selami Fidakar bo‘ladi. Bu olim Turkiya davlatining Gaziantep shahridagi universitetda faoliyat yuritib, “O‘zbek xalq ijodi” nomi ostida chop etilgan ertak matnlari bilan tanishar ekan, ertak turlari, jumladan, parilar bilan bog‘liq ertak turlarining boshqa turkiy xalqlarda

uchramaydigan sifatlar bilan bog‘liq ekanligini o‘rgangan. Ushbu mavzuda maqola yozib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi ertak matnlarining ommaviy shaklda noyob mazmunga ega ekanini, ushbu ertaklarni o‘qigan bolalarni esa yaxshilikka yo‘naltiruvchi kuchi bor ekanligini aytib beradi. Shuningdek, «Besh qiz» sehrliertagida parilar podshosining qizi tilidan bayon qilingan tafsilot mifologik tasavvurni ancha teranlashtiradi. Kiritma bir tarafdin, ifoda sujetini qoliplovchi hikoya vazifasini bajarsa, ikkinchi tarafdin, tasvir ruhiyati hayotiy-maishiy va asotiriy-xayoliy sarguzashtni yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Janrda faol qahramon sifatida bot-bot uchraydigan pari obrazi, odatda, sehr-jodu bilan aloqalan tirilgan mifologik taassurotlarni o‘zida namoyon etadi. E’tiborli jihati, ertakda ikkita g‘ayritabiiy qiyofa sohibi –pari va dev bir-biriga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyada turadi. Ijobiy qahramon –qiz hamda yovuzlik timsoli –dev shamoyilida hosil bo‘ladigan evrilishlar ham muvofiq ravishda (oq va qora rangli ilonshaklida) amalga oshiriladi. Zero, ranglarga singib ketgan e’tiqod ziddiyati uyg‘unligi hamisha keskin munosabatni yuzaga keltirgan. Tajovuzkor devning pariga xushtor bo‘lishi zahirida mangu ixtilof aks etadi. Yoyilib ketgan chizgilar aynan shu badiiy mohiyatga urg‘u beradi. Mutaxassislarimiz ta’kidlaganidek “o‘zbek xalq ertaklarining obrazlar tizimida kelib chiqishi qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asotiriy personajlar muhim o‘rin tutadi. Bu tip obrazlar ertak badiiy qurilishida qahramonga yordam beruvchi homiy-personaj, unga dushmanlik qiluvchi raqib-personaj, “g‘aroyib narsa”larni hadya etuvchi epik homiy kabi vazifalarda keladi”.[6:194] O‘zbek adabiyoti matnlarining akademik shakllaridan farqli ravishda ertak shakllari va matnlarning ham jamoatchilikka taqdim etilishi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘zbek va Turk ertaklarida uchraydigan pari obrazlarini tahlilga tortish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

- turk adabiyotida “Su perisi masali” (“Suv parisi ertagi”) nomi ostida ko‘plab turdagi ertaklar mavjud;
- shunga ko‘ra, ular Bursa, Qora dengiz, Istanbul ertaklari kabi guruhlanishlarga ham ajratiladi. Bu esa mavjud voqea-hodisaning bir necha variantlarda ertak shaklida ochiq qilinishiga dalolatdir;
- aka-uka Grimm lar qalamiga mansub ertaklarning turk tiliga qilingan tarjimalari orasida ham suv parilari, farishta parilar, botqoq parilari va shu kabilarga oid bo‘lgan tarjima ertaklar mavjud;
- o‘zbek xalqi ijodida esa pari obrazining shakllanishida suv parilarining ramz sifatida qalamga olinishi (“Ilon pari”), ertakning sujet chizig‘i boshqalaridan ajralib turishi (“Qora soch pari”), insoniyat va tabiat o‘rtasidagi mutanosiblik va dostona

muhit (“Pari qizning ko‘ylagi”) yovuzlik ramzi sifatida (suv alvastilari bilan bog‘liq ertaklar), oshiqlik yo‘nalishida (“Shahzoda va pari”) kabilar ahamiyatli hisoblanadi.

– har ikki xalq adabiyotidagi pari obrazlarining ifodalanishi milliy xalq mentaliteti, diniy qarashlar, sujet chizig‘ida dualizmning ikki tomonlama ifodalanishi sujet rang-barangligini ta’minlaydi va ertaklarning xalq hayotidagi muhim o‘rnini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haqqulov I. Zanjirband she‘r qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
2. Jumanov E. Pari obrazlarining tavsifiy ifodalanishi // Jahon adabiyoti san’ati, 2022-yil, 1-son. – B. 45-48.
3. Qayumov Olim Sardorovich. O‘zbek folklorida pari obrazi: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 1999.
4. Selami Fedakar. Özbekistan’daki masal arashtırmalarının tarihi ve gelişimi // Gaziantep University Journal of Social Sciences, June 2014.
5. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
6. <https://edebiyatyorismalari.com/peri-masali/uzun-oglan-ve-su-perisi/>
7. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/ilon-pari>